BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

“MILLATLAR QOTILI” – IOSIF STALINNING O‘ZSSR DAGI AVTORITAR BOSHQARUVI

Amirova Zarina Ixtiyor qizi
Qarshi Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo’nalishi talabasi
Telefon: +998-93-331-55-70
zarinamirova80@gmail.com

Annottatsiya: Ushbu maqola SSSR tashkiltopgandan so‘ng,1924-yil homiyat tepasiga kelgan Iosif Stalinning O‘zSSRda olib borgan avtoritar bosqaruvi haqida. Kommunistik partiya yagona partiyaga aylantiirldi, Iosif Stalin o‘zini xalqlar dohiysi deb e’lon qildi va hokimiyat yagona bir shaxs xohish istaklariga ko‘ra ish olib borildi. Hokimiyat daxlsizligi uchun “qatag‘on” siyosatini yuritdi. Maqolada O‘zbekistonda “qatag‘on” siyosati haqida qisqacha so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ma’muriy-buyruqbozlik, Iosif Stalin, Kommunistik partiya, marksizm-leninizm mafkurasi, proletariat diktaturasi, “Katta terror”,“Millatlar qotili”, xalqlar “dohi”si.

SSSRdagi o‘tgan asrning 70-yillik ma’muriy-buyruqbozlik rejim ostidagi boshqaruvi, uning mustamlakalardan biri bo‘lgan O‘zbekistondagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga katta ta’sir ko’rsatgan. Bu tizimning mohiyati, davlat tomonidan boshqa sohalarga qattiq nazorat o‘rnatish va majburiy tartib-intizomga amal qilishdan iborat edi. Bu davr O‘zbekiston SSRda sovet hokimyatining mustahkamlanishi bilan birga, avtoritar boshqaruvining asoslari shakllangan. 1920-yillarda hali to‘liq totalitar boshqaruv tizimi o‘rnatilmagan. Bu jarayonni biz o‘lkadagi turli sohalarda hali ba’zi masalalarda biroz erkinliklar mavjud bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti SSSRda boshqaruvning mustabid va ma’muriy buyruqbozlik tizimi o‘zining barcha salbiy ko‘rinishlari bilan qaror topishi va mustahkamlanishi sharoitida kechar edi. Ushbu davrning respublika ijtimoiy-siyosiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan yana bir xususiyati – Sovet mustabid davlati siyosiy tizimida sinfiy mafkura shakllanib, kommunistik partiya mutlaq hukmronlik qilar edi. Kompartiya o‘zi amalga oshirgan oktabr to‘ntarishi tufayli hokimiyatni qo‘lga oldi va “alohida olingan bir mamlakatda sotsializm qurish”ni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ydi. Lekin Markaz O‘zbekistonda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ma’muriy-buyruqbozlik usuli bilan sun’iy ravishda tezlashtirib, respublikadagi haqiqiy ahvolni umuman e’tiborga olmas edi.
Natijada O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ancha ziddiyatli tus oldi. Hukmronlik qilayotgan kompartiya o‘ziga ma’qul bo‘lgan sinfiy yondoshuvga asosan jamiyatni sun’iy ravishda ‘mehnatkashlar’ va ‘mehnatkash bo‘lmaganlar’ga ajratib, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdi. Bir tomondan, kommunistik tuzum ko‘r-ko‘rona “mehnatkashlar ommasi”ning siyosiy faolligini “qo‘zg‘ash”ga, ularni partiya-davlat tuzilmalariga va jamoat tashkilotlariga keng jalb qilishga intilsa, ikkinchi tomondan, aholining “mehnatkash bo‘lmagan” - mulkdorlar, dindorlar, amaldorlar kabi qatlamining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini o‘z maqsadlari yo‘l ida qabul qilingan qonun asosida cheklab qo‘ydi. Shu bilan birga, ularga qarshi doimiy ish olib bordi. Bu kurash faqat ‘mehnatkash bo‘lmagan’ qatlamlarga emas, kommunistik rejimga qarshi chiqqan barcha kishilarga - yangicha fikr yuritadiganlarga, o‘zbek xalqining manfaatlarini himoya qilganlarga qarshi ham yuritildi.

1925-yillardan keyin, Iosif Stalin rahbarligi ostidagi boshqaruv partiyaning g‘oyaviy yuksalishi va marksizm-leninizm mafkurasi asos qilib olingan. Komunistik partiyaning asosiy g‘oyalari va vazifalari – kommunizm qurish, proletariat diktaturasi, xususiy mulkchilikni tugatish, internatsionalizm, bozor iqtisodiyotidan voz kechish hamda sinfsiz jamiyat barpo etishni o‘z ichiga olgan edi. Ushbu g‘oyalar asosida komunistik boshqaruv vujudga kelgan. Ko‘p hollarda mahalliy sharoit hisobga olinmagan. Buyruqlarga bo‘ysunmaganlar jumladan, diniy ulomalar, milliy jadidlar, “bosmachilar” qattiq ta’qib qilingan va ayovsiz jazolangan.

1927-yildan boshlab, Iosif Stalin hokimyatni to‘liq qo‘lga oldi. Uning boshqaruv davri O‘zbekiston SSR hokimyatiga ham katta ta’sir qildi. “Milliy davlat tashkil qilish” niqobi ostidagi siyosat negizida O‘zbekiston SSR Markaziy Ijro Qo‘mitasi tuzilib, uning raisi Yovldosh Oxunboboyev tayinlangan.

Ayni shu davrda SSSRning barcha hududlarida kommunistik partiya g‘oyalari keng tarqalgan,davlatning yagona partiyasi bo‘lib kelayotgan edi.

Bundan tashqari keying 1930-yillarda I.Stalin o’z hokimiyatini mustahkamklash va davlatning yagona shaxsiga aylanish maqsadida unga bo‘sunmagan har bir shaxsni jismonan yo‘q qilishga kirishdi. Bu jarayon O‘zbekiston SSRda ham partiya yetakchilari, milliy ziyolilar, din vakillari qatag‘on qilingan. O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezdumi raisi lavozimida faoliyat yuritgan Yo‘ldosh Oxunboboyev bu aynchli vaziyat ishtirokchisiga aylanib qolgan va markazdan kelgan buyruqlarni so‘zsiz bajargan. Ammo qatagvon davomida Yo‘ldosh Oxunboboyevning o‘zi ham omon qolmagan. Ziyolilar “burjua millatchilari”, “xalq dushmanlari” kabi nomlar bilan qatag‘on qilingan. Millatimiz oydinlardan Abdulhomid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqalar; O‘zbekiston SSR rahbarlaridan Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Ishoqxon To‘ra Ibratlarni aytib o‘tish kerak. Iosif Stalin siyosati katta talofatlarga olib kelib, bu SSSR tarixidagi avtoritarizm davri bo‘lgan.

1936-yilda NKVDdagi o‘zgarishlar fonida “Katta terror” deb nomlangan qatag‘onlar boshlanib ketadi. 1937-1938 - yillarda umumiy hisobda 1 mln 575 ming 259 nafar kishi qamaladi. Ulardan 681 ming 692 nafari tergovdan so‘ng otuvga hukm qilinadi.Markaziy Osiyo respublikalaridan qamalganlar va otib tashlanganlar asosan «pankturkist», «millatchi», «diniy reaksioner», Rossiya taraflarda «troitskiychi», «menshevik», Ukrainada esa «banderachilar» degan ayblov bilan qatag’on qilindi.

Umuman olganda, odamlarni qamash va ularni qo‘rquvda ushlab turish to Stalin o‘limiga qadar davom etadi. Xalqaro «Memorial» tashkiloti hisobotlariga ko‘ra, Stalin qatag‘onlari tufayli 10-12 milliondan 38-39 million nafargacha odam halok bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

I.Stalinning 1924-1958-yillar davomida olib borgan bu qatag‘on siyosatini balki o‘zbek xalqi,shu bilan birga butun SSSR tarkibidagi xalqlar his qildi. “Millatlar qotili” Iosif Stalin manbalarga ko‘ra, 1958-yil 1-mart kuni kechasi vafot etadi. Ammo uning o‘limi haqidagi xabar Butunittifoq xalqlariga 5-mart kuni xabar berildi. Uning dafn marosimi butun dunyoni hayrtaga soldi. Chuni u sovet hokimiyatining rahnamosiga aylandi. Shu bilan birga dafn marosimiga shu qadar ko‘p odam tashrif buyuradi-ki, xalqlarning bu reaksiyasi kutilmagan edi.

Iosif Stalin vafotidan so‘ng SSSR hukumat rahbarlari yumshoqlik siyosatini yuritishga harakat qilishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, Stalinning “shaxsga sig‘inish”, avtoritar boshqaruvi butun xalqlar tarixida azob-uqubatli yillar bo‘lib qolmay, tuzumning oqibatlarini ham ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулҳай,Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS",(1), 56-60.
2. Muhammadali Mamadaliyev. “O’zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy hayot”. Samarqand , 2004
3. Feruz Narmanov. O’zbekiston tarixi. Toshkent, 2009.
4. https://kun.uz/87518620